
VATANGA MUHABBAT – ENG MUQADDAS TUYG’U

“Agar sen bir insonning qanaqaligini bilmoqchi bo’lsang, uning vatanini sog’inishiga boq” (Al-mujalasa va javahirul ilm)

Vatanga muhabbat avvalo insonning o’z oilasi, uyi, mahallasi hamda tug’ilib o’sgan yurtiga mehr-muhabbatidir. Vatanga muhabbat yuksak insoniy, yaxshi fazilatlardan hisoblanadi. Bu haqda “Vatanni sevmoq iymondandir” deyilgan hikmatni esga olish kifoya. Darhaqiqat Islom insonparvar, vatanparvar, millatparvar din. U barcha insoniy tuyg’u va qadriyatlarni ulug’laydi va insonlarni shunga o’rgatadi. “Vatan” atamasi aslida arabcha so’z bo’lib, ona yurt ma’nosini anglatadi.

Buyuk mufassir imom Faxriddin ar-Roziy rahmatullohi alayh fikricha vatanga bo’lgan muhabbat inson tabiatida bo’lgan his bo’lib, bu tuyg’u insonda mustahkam o’rnashgan bo’ladi. Imom bunga misol qilib Qur’onning Niso surasi 66-oyatini keltiradilar:

Agar Biz ularga: «O’zlaringizni o’ldiring yoki yurtingizdan chiqib keting», — deb buyurganimizda edi, ozchiligidan boshqasi uni qilmagan bo’lur edilar.

“Tafsirul Kabir” da bu oyatda Alloh taolo vatandan ajralishni o’zini o’ldirishga tenglashtiryapti deganlar. Ya’ni go’yoki Alloh: “Agar Men ularga bu ikki sinovdan birini tanlashni yozganimda, ular bu ishni qilmasdilar” demoqda.

Bundan olimlar vatandan ayrilish bu qiyin ish ekanligini va uning alami jonidan ayrilishga tenglashtirilishini hamda vatan muhabbati inson qalbiga chuqur o’rnashishini aytishgan.

Buyuk olim Mulla Aliyul Qoriy rohimahulloh esa o’zlarining mashhur “Mirqotul mafotix” kitoblarida: “Vatandan ayrilish katta sinov ekanligini aytib, bunga misol Allohning quyidagi so’zidadir: “va sizlarni chiqargan joydan ularni chiqaringiz!”(so’zidan keyin) Fitna qotillikdan ham ashaddiyoqdir(Baqara 191-oyat)” deganlar.

Imom Buxoriy, ibn Hibbon va imom Termiziy rohimahumullohlar Anas roziallohu anhudan quyidagi hadisni rivoyat qilishgan: **“Payg’ambarimiz sollallohu alayhi vasallam har safardan qaytganlarida Madina shahri devorlarini ko’rishlari bilan Madinaga tezroq kirish uchun tuyalarini tezlatardilar va uni yaxshi ko’rardilar”.**

Ushbu hadisdan ko’rinib turibdiki payg’ambarimiz sollallohu alayhi vasallam o’z vatanlarini shunchalar qattiq sevganlarki unga kirish uchun safardan qaytishda shoshilganlar.

Imom ibn Hajar al-Asqaloni rohimahulloh o’zlarining “Fatxul bori fi sharxi saxixil Buxoriy ” asarlarida ushbu hadisni sharhlab shunday deganlar: “Bu hadis Madina shahrining fazlini bildirish bilan birga vatanni sevish joiz ekanligiga ham ishora qiladi.” Bu fikrni Badriddin Ayniy rohimahulloh ham o’z kitoblari “Umdatul Qori” da bildirganlar. Ushbu sunnat payg’ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning boshqa sunnatlari kabi qadrli hisoblanadi va bu musulmonning boshqa odamlar bilan samimiy munosabatlarda bo’lishini anglatadi.

Imom Zaxabiy rohimahulloh o’zlarining “Siyaru a’lamin nubalo” kitoblarida shunday deganlar: “Payg’ambarimiz sollallohu alayhi vasallam Oisha roziallohu anhani, uning otasi(Abu Bakr roziallohu anhu)ni, Usoma roziallohu anhuni, ikki nabiralari(Hasan va Husan roziallohu anhumo)ni, shirinliklarni, asalni, Uxud tog’ini, o’z vatanlarini, ansorlarni roziallohu anhum va sanalmagan boshqa ko’plab odamlarni va narsalarni yaxshi ko’rardilarki, bularni bilmoq har bir musulmonga lozimdir”.

Ulamolar fikricha vatandan uzoqdagi musofir uchun uning muhabbati haqiqiy sinovdir. Imom Ahmad va imom Tabariy rohimahumallohlar Uqba ibn Omir al-Juxaniy roziallohu anhudan keltirgan hadisda payg’ambarimiz sollallohu alayhi vasallam shunday deganlar: **“Uch kishining duosi mustajobdir: otananing farzandi haqqiga qilgan duosi, musofirning duosi va mazlumning duosi”.** Musofirning duosini Alloh qabul qilishining bir sababi u vatani va oilasi sog’inchida qiynalganligidadir.

Agar tafakkur qilsak Alloh subhanahu va taoloning yaratgan barcha maxluqlarining fitratida, ya’ni **h** tabiatida o’z uyi, vatani muhabbatini joylagan. Tabiatga nazar soling hayvonlar ham o’z uylariga tomon talpinishadi: ayiq o’z g’origa, chumoli o’z iniga va hokazo... Shunday ekan ongli mavjudot bo’lgan inson hayvonotdan ko’ra o’z vatanini ko’proq sevishi va qadrlashi uni muhofazasi uchun jonini berishga tayyor

turishi lozimdir.

Faqihlar Haj qilishning fazilati va hikmati hamda unga beriladigan ulkan ajrlar sabablaridan qilib insonning qalbini poklash mashaqqatida o'z vatanidan ayrilishini aytishgan.

Abu Nuaym rohimahulloh o'zlarining "Hilyatul avliyo" asarlarida sanadini Ibrohim ibn Adham quddisa sirrohuga yetkazib u kishining quyidagi so'zlarini keltirganlar: "Men vatandan ayriliq sinovidek og'ir sinovga duchor bo'lmaganman."

Al-Asmaiy rohimahulloh shunday deganlar: "Tuya hatto o'z uyidan uzoqda bo'lsa ham unga tomon talpinadi. Qush ham hattoki uning uyi buzilgan bo'lsa ham unga tomon talpinadi. Odam ham hatto boshqa joy unga ko'p foyda keltirib turgan bo'lsa ham o'z uyi topon talpinadi."

Vatan muhabbati borasida ko'plab olimlar asarlar yozganlar va ko'plab olimlar bu haqda o'z kitoblarida keltirganlar. Ochiq qalb bilan o'qib vatan nimaligini tushunish uchun yuqoridagi fikrlardan xulosa chiqarish qiyin emas. Alloh barchamizga haqni tanitsin va unga ergashishni nasib qilsin.

(Usoma as-Sayid Mahmud Al-Azxariyning "Ochiq haqiqat" asaridan foydalanildi)

Abduxoshim AXMADALIYEV,

Qo'shtepa tumani bosh imom xatibi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2021-03-29 08:32:44